









Nogironligi bor insonlarning “Temir daftar”dagi imtiyozlari


Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen “Temir daftar” bilan bog‘liq imtiyozlar haqida bilib olasan.
	**Temir daftar** — bu oilaviy sharoiti og‘ir, moddiy yordamga muhtoj oilalarga yordam beruvchi tizim.
	Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra seni oilang: ● kam ta’minlangan oila deb topilgan bo‘lsa ● oilangda yordamga muhtoj birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor yaqinlaring bo‘lsa “Temir daftar”ga kiritiladi.
	**“Temir daftar”ga kirish uchun sen:** ● kam pul topishing ● nogironligi bor bo‘lishi ● oilang yordamga muhtoj bo‘lishi ● yolg‘iz yashaydigan qariya bo‘lishing

	• ishsiz bo‘lishing kerak.
	Sening oilangdagi har bitta inson oyiga 568 000 (besh yuz oltmish sakkiz ming) so‘mdan ko‘p pul topmasa kam ta’minlangan oila hisoblanadi.
	Masalan: • Seni oilangda ota-ona va 3 ta farzand yashaydi. • Ota-ona oyiga 2 million so‘m pul topadi. • Shu 2 million so‘m 5 kishiga bo‘linadi. • Shunda har bir insonga 400 ming so‘mdan to‘g‘ri keladi. • Bunda sening oilang kam ta’minlangan oila bo‘ladi.
	“Temir daftar” ga kirish uchun sen o‘zing yashaydigan **tuman (shahar) hokimiga ariza** bilan murojaat qilishing kerak.
	Sen ariza bilan murojaat qilinganingdan keyin **hokim** va **hokim tuzgan guruh** 5 kunda sening **yashash sharoitingni o‘rganadi.**

	Sen “Temir daftar”ga kirishga **loyiq bo‘lsang “Temir daftar”ga kiritilasan.**
	Sen “Temir daftar”ga kiritilsang **1 yilda 1 marta pul yordami olishing mumkin.**
	**Pul yordamini olishing uchun ariza bilan murojaat qilishing shart emas.**
	1 yilda 1 marta beriladigan yordam puli – 1 100 000 (bir million bir yuz ming) so‘m.
	**“Temir daftar”ga kiritilsang senga imtiyozlar beriladi. Masalan, sen:** ● uyingni ta’mirlashing ● tadbirkorlik qilish uchun kredit olishing ● **subsidiya** olishing mumkin.

	**Kredit** – bu ma’lum vaqt davomida biroz qo‘shimcha bilan bo‘lib qaytarishga olingan pul.
	**Tadbirkorlik qilish uchun kredit olish –** sen o‘zingni-o‘zing band qilishing va yangi ish o‘rinlari yaratishing uchun bankdan bo‘lib qaytarishga oladigan pul.
	**Subsidiya** – bu yordamga muhtoj insonlarga beriladigan va qaytarib olinmaydigan pul.
	**Tadbirkorlik** uchun kredit olishda sendan **sertifikat** so‘raladi.
	**Sertifikat** – bu sen kasb yoki hunarni o‘qib-o‘rganganligingni tasdiqlovchi hujjat.

	Masalan: sen tikuv sexi ochishda tikuv mashinalari sotib olishing uchun “Temir daftar” orqali bankdan kredit yoki subsidiya olmoqchi bo‘lsang, sendan tikuvchilikni bilishingni tasdiqlovchi sertifikat so‘raladi.
	Sen “**Temir daftar” ro‘yxatida bo‘lsang 33 million** so‘mgacha **kredit** olishing mumkin.
	Sen etikdo‘zlikka kerakli narsalar uchun **5 million so‘mgacha** subsidiya olishing mumkin.
	Sen “Temir daftar”da ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsang subsidiya yoki kredit olish uchun **hokim yordamchisiga ariza** bilan murojaat qilishing kerak.
	Oilada sening onang yordamga muhtojligi uchun “Ayollar daftari”ga kiritilgan bo‘lsa, sen nogironliging borligi uchun “Temir daftar”ga kirishing mumkin.

	Aslida bitta oila ham “Temir daftar”da ham “Ayollar daftari”da turishi mumkin emas.
	Faqat oilangdagi nogironligi bor yaqinlaringning **nogironlik holatiga qarab seni** oilang ham “Temir daftar”ga ham “Ayollar daftari”ga **kiritilishi mumkin.**
	Seni oilangda nogironligi bor insonlar bo‘lmasa, ham “Temir daftar”da ham “Ayollar daftari”da turishing mumkin emas.
	Sen “Temir daftar”da tursang, “Ayollar daftari”dan, “Ayollar daftari”da tursang, “Temir daftar”dan chiqarib yuborilasan.